

Usmanov Mashrab Rustamovich

g.f.f.d (PhD): dots v/b

Jizzax davlat pedagogika universiteti

E-mail: mashrabsmonov79@gmail.com

Annotation: mazkur maqolada yurtimizning boy madaniyati va qadimiylar tarixi, Jizzax viloyatining tabiiy turistik ob'ektlari, Zomin tumanida sayyohlikni tashkil qilish imkoniyatlar, qo'riqxonalar va ularning hududiy joylanish xususiyatlari, turli tarixiy yodgorliklar va tabiat tomonidan yaratilgan ob'ektlarning turizmdagi ahamiyati, turistik marshrutlar tahlili hamda imkoniyatlari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlari: turizm siyosati, tarixiy, arxitektura, diqqatga sazovar joylar, tabiiy yodgorliklar, qo'riqxona, Zomin sayyohlik imkoniyati va turizm yo'nalishlari ekoturizm va ularning turizmda tutgan o'rni.

ПЕРСПЕКТИВЫ ОРГАНИЗАЦИИ И РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В ЗОМИНСКОМ РАЙОНЕ

Аннотация: В данной статье рассмотрены богатая культура и древняя история нашей страны, природные туристские объекты Джизакской области, возможности организации туризма в Зоминском районе, заповедники и их территориальное расположение, значение различных исторических памятников и объектов, созданных природой. В туризме выделен анализ туристических маршрутов и вариантов.

Ключевые слова: туристическая политика, исторические, архитектурные, достопримечательности, памятники природы, заповедник, туристические возможности Зомина и туристические направления, экотуризм и его роль в туризме.

PROSPECTS OF TOURISM ORGANIZATION AND DEVELOPMENT IN ZOMIN DISTRICT

Abstract: In this article, the rich culture and ancient history of our country, the natural tourist objects of Jizzakh region, the possibilities of organizing tourism in the Zomin district, nature reserves and their territorial location, the significance of various historical monuments and objects created by nature in tourism, the analysis of tourist routes and options are highlighted.

Key words: *tourism policy, historical, architectural, places of interest, natural monuments, reserve, Zomin tourist opportunity and tourism destinations, ecotourism and their role in tourism.*

Yurtimizning boy madaniyati va qadimiy tarixi necha asrlarki dunyo xalqlarining yurtimizga qiziqishini oshirib kelmoqda. Ayniqsa, qadimiy bino va inshootlar, arxeologik yodgorliklar, muqaddas qadamjolar buyuk ajdodlarimizning yuksak aql-farosati, noyob iste'dodi, bunyodkorlik salohiyatini namoyon etishi bilan kishini o'ziga ohanrabodek tortadi. Bu esa mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga ham katta turtki beradi. Shu bois nafaqat xalqimiz, balki butun insoniyatning moddiy madaniy merosi deb qaraladigan obidalarni asrab-avaylashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qolaversa, bu ob'ektlar YuNESKOning butunjahon merosi sifatida ro'yxatga olinib, muhofaza qilinadi.

Mamlakatimizda bugungi kunda turizm davlat siyosati jarajasiga ko'tarilgan bo'lib, uni rivojlantirish, hududlarda tashkil etish, yangi ob'ektlarni aniqlash lozimdir. Bugungi kunda butun jahondagi turistik destinatsiyalar hamisha sayyoohlarni o'ziga jalb etib kelmoqda. Turli omillarga ko'ra ifoslantirgan toza havo, suv va shuningdek, shovqin hamda ijtimoiy qarama qarshilikdan charchagan inson o'zini tabiat qo'ynida shu bilan birga biror diqqatga sazovar joyga borib, hayot tashvishlaridan holi bo'lgisi va ruhan dam olishni istashadi.

Hozirgi kunda Jizzax viloyatida ham mana shunday kishilarni o'ziga jalb etaoladigan turistik destinatsiyalar mavjud bo'lib, ularni to'g'ri yo'lga qo'yish orqali sayyoohlarni oqimini yanada oshirish mumkin. Shuningdek, viloyat hududlarida turizmning bir necha yo'nalishlarini tashkil qilish va rivojlantirish mumkin. Bularga misol qilib:

- Quriqxona, milliy bog' va xushhavo tog'larga sayohat;
- qisqa muddatli sayyoohlilikni tashkil qilish;
- faol, aktiv dam olishni yo'lga qo'yish;
- noyob tarixiy obida va ziyotgohlarni ilmiy tadqiq qilish;
- yangi turistik marshrutlarni tashkil etish va boshqalar.

Bugunga kelib mamlakatimizda sayyoohlarni jalb qilish mumkin bo'lgan faqatgina tarixiy, madaniy me'moriy, arxeologik ahamiyatli ega ob'ektlar soni 8,0 mingdan ziyodni tashkil qiladi. Ulardan 4778 tasi arxeologik, 2246 tasi tarixiy obida va ziyoratgohlar, 688 tasi monumental, 502 tasi diqqatga sazovar joylardir.

Ma'lumotlarga qaragandi turistlarning ko'rishi mumkin bo'lgan ob'ektlar soni bo'yicha Xiva shahri birinchi o'rinda turadi. Unda 310 ob'ekt, ikkinchi o'rinda Buxoro shahri bo'lib, unda 221 ta ob'ekt va Samarqandda 118 ob'ekt mavjud. Bizning viloyatimizda esa 427 ta madaniy meros ob'ektlari davlat muxofazasiga olingan. Ya'ni, ularning 100 tasi tarixiy obida ziyoratgoh, 268 tasi arxeologik

yodgorliklar, 59 tasi monumental yodgorliklar sifatida asrab – avaylanadi. Shu bilan birga bugungi kunda viloyatning shahar va tumanlarida faoliyat ko'rsatayotgan o'ndan ziyot mehmonxona yiliga 35 mingta sayohatchini qabul qilish imkoniyatiga ega. Yuqoridigilardan ko'rinish turidiki viloyatimizda sayohlarni qabul qiliish borasida katta yutuqlarga erishishimiz mumkin biroq turistik ob'ektlarni ko'proq reklama qilish va ularni ijtimoiy tarmoqlarga joylab, ularni ko'proq yoritib o'tish joizdir.

Jizzax viloyatida ekoturizmni tashkil etishning yana bir ahamiyatli tomoni uning betakror tabiatida yashayotgan hayvonot va o'simliklar olamidir. Chunki ushbu xududda 3 ta alohida qo'riqlanadigan hudud Zomin milliy bog'i, Zomin va Nurota davlat qo'riqxonasi, Baxmal, Zomin, G'allaorol o'rmonchilik xo'jaliklari joylashgan. Alohida qo'riqlanadigan xududlar o'zixa xos tabiatini va betakror tabiiy landshaftlari bilan barchani o'ziga jalb etadi. Uning shifobaxsh suvlari va musaffo havosi inson salomatligini ijobiy ta'sir etib, umrini uzaytirishiga va xastaliklardan ozod bo'lishiga yordam beradi.

Vohaning o'ziga xos so'lim va betakror tabiatini, shuningdek xalqimizning ko'hna tarixi, madaniyati kimlarni maftun etmaydi, deysiz. Turkiston tog' tizmasining shimoliy – g'arbiy qismida joylashgan Baxmal va Zomin tumanlari hududida dunyo sayyoohlarini ham jalb etish imkoniyatlari katta. Ushbu hududlardagi soyalaridan oqayotgan muzdek suvlari va qorli tog'larni qoplagan quyuq archazorlarni, musaffo, shifobaxsh havosini respublikamizning boshqa joylarida uchratib bo'lmaydi.

Turkistont tog' tizmasida ekoturizmni yo'lga qo'yish va rivojlantirishda asosan 3 ta yo'naliш tanlab olingen bo'lib, bularga Jizzax-Pishog'or, Jizzax- Zomin milliy bog'i, Jizzax-Muzbuloq-O'smat yo'naliшlaridir.

Birinchi yo'naliш hisoblangan Jizzax-Pishog'or yo'naliшida Xo'jai - serob ota ziyouratgohi hamda Pishog'or g'ori alohida axamiyatga ega. Ziyouratgoh Pishog'or qishlog'ining yuqori qismida joylashgan. G'or Turkiston tog' tizmasining g'arbiy qismi, Morguzarning shimoliy yon bag'rida Pishog'or soy irmog'i – Do'lona - Quduqsoyning chap betida joylashgan. U chuqur ilmiy arxeologik tadqiqotlarga muhtoj. Ko'hna zaminimiz haqida yangi, qiziqarli ma'lumotlar berishi tabiiydir.

Ikkinci yo'naliш hisoblangan Jizzax-Zomin yo'naliш, Zomin tumani markazidagi muzeydan boshlanib, Bog'ishamol, Hulkar, Tog'terak, Duoba, Yettikechuv qishloqlarini o'z ichiga oladi. Qishloqlardagi xonadonlarda mexmonlar uyi tashkil etish bilan birga, qishloqlar soy bo'yлari va aholidan uzoq tabiiy manzillar atrofiga maxsus o'tovlar tiklanib, tub aholining madaniyati, yashash tarzi, urf-odatlarini ifodalovchi buyumlar, hayvonot va o'simliklar olamini aks ettiruvchi ko'rgazmalar tashkil etish va sayyoхlar tumanning boshqa qadamjolariga ham taklif qilinishlari mumkin.

Zominning nihoyatda so'lim va betakror tabiat, maxalliy aholisining qadimiy madaniyati va ko'xna tarixi bilan alohida o'rinda turadi. Chunki tuman qishloqlari Turkiston tog' tizmasi xududida joylashgan bo'lib, u Xisor – Oloy tog' tizmisiga kiruvchi tog'lar bag'rida Zomin va Baxmal o'rmon xo'jaligi, Zomin milliy bog'i va Zomin davlat qo'riqxonasi xududlarini egallagan. Ushbu viloyatimizning alohida qo'riqlanadigan xududlarida O'zbekistonning Qizil kitobiga kiritilgan Qushlarning 8 turi, umurtqali xayvonlarning 4 turi o'simliklarning 13 turi muxofaza qilinadi. Bundan tashqari Jizzax viloyatidagi "Davlat muhofazasi ruyhati"ga kiritilgan 427 ta madaniy meros ob'ektlari, shundan 100 ta tarixiy obida va muqaddas ziyoratgohlar, 268 ta arxeologik manzilgohlar, 59 ta monumental yodgorliklar (xaykallar, byustlar, xotira maydonlari)ning qariyb 60 - 70 foizi Zomin tumanida joylashgan.

Zomin tumanida olib borilgan marketing tadqiqotlar natijalariga ko'ra O'zbekistonda ekoturizm, sarguzasht turizmi va tog' changi turizmini yo'lga qo'yishning katta imkoniyatlari mavjud. Biroq hozirda tog' chang'i turimi 32 foizga, sarguzasht turizmi 20 foizga va ekoturizm sayyoqlik ko'rsatkichlaridan bor yo'g'i 9 foizni tashkil qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakkii har bir sayyoqlik marshrutlarini sayyoqlar yoshiga ko'ra tashkil etilganida va maxsus guruhlanganida 35 yoshgacha bo'lgan turistlar guruxi 22 foizni, 35 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan turistlar 28 foizni va 50 yoshdan yuqori sayyoqlar guruhi 50 foizni takil etadi. Ko'rinish turibdiki 35 yoshgacha bo'lgan sayyoqlar guruhi nisbata kamroq bo'lib bunga sabab faol va tog' turizmlarining yetarlicha tashkil etilganligini bildiradi.

Zomin tumanida sayyoqliki tashkil qilishda quyidagi imkoniyatlari mavjud:

1. Infrastrukturani shakillantirish uchun ma'sul va barcha javobgarlikni o'z zimmasiga oluvchi tashkilotlarni shakillantirish mumkinligi;
2. Turizimga mutaxassislik nuqtai nazardan yondashuvchi organlarning shakllanayotganligi;
3. Mehmono'stlik va tashrif buyuruvchilarga yuqori malakali xizmat ko'rsatish imkoniyatining mavjudligi;
4. Mahalliy aholining rahbariyat va turistik ma'sullar bilan birlgilikda ishlashi.

Shuningdek, tumandagi ushbu holatlarda sohalarning to'laligicha rivojlanib ketishiga to'sqinlik qiluvchi omillar.

- shu paytgacha aniq turistik marshrutlar yo'qligi va mavjudlarining ham juda kam reklama qilinganligi;
- turistik yo'nalishda davlat to'lovlarining kamaygan miqdorda to'lanishi va boshqa imkoniyatning borligiga qaramasdan joylardagi tadbirkorlarning ushbu sohaga kam e'tibor qaratishi;
- hududning iqlimi tabiiy o'zgarishlarga kuchli bog'liq ekanligi;

- milliy bog' xodimlarining turizm yo'nalishida tashrif buyuruvchilarni boshqaruvini to'laligicha o'z zimmasiga olmaganligi;
- turistlar va kelib ketuvchilarning estetik, ekologik savodxonligining yetishmasiligi oqibatida atrof muhitning kuchli ifloslanishi, mahalliy aholi hayotiga va sog'ligiga havf soluvchi xolatlarning ro'y berishi (yong'in chiqishi, suvning ifloslanishi, chiqindilar va x.k.);
- ichki va tashqi turizm rivojlanishida cheklovlar mavjud bo'lib unga bilimi va malakasining yetishmasligi, turizmga bir tomonlama yondashuv, esdalik sovg'alar, folklor va boshqa ko'ngil ochar mashg'ulrotlarni tashkil etilishidagi xatti-harakatlarning yetarli emasligi sabab bo'lmoqda.

Yuqoridagilarni hisobga olib Zomin tumanida turizmning quyidagi yo'nalishlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- *faol turizm*: (trekking va baland tekisliklarda piyoda poxodlar), speleoturizm, umumiylar tarzda tashkil etilgan turizm (bir marshrut bo'ylab turli shakldagi masalan, yo'lning qaysidir qismini piyoda, qaerinidir transportda yoki ot-eshak kabi ulovlarda bosib o'tish mumkin) mustaqil (sport) turizmi, ovchilik va baliq ovlash;
- *ekologik turizm* (ekoturizm) (adventure travel): turisitlarni tabiatning alohida elementlari yoki landshaftlar kabi yo'nalishllari yuzasidan jalg etish: peyzajlar, tabiiy yodgorliklar, o'simlik va hayvonlarning alohida turlari va ularni o'rganish;
- *davolash-sog'lomashtirish turizmi* (rekreatsion): sog'lomashtirish maqsadida, shunigdek ma'lum turlardagi kasalliklarni davolash uchun foydalanish;
- *madaniy turizm* (o'rganish uch): tarixiy, madaniy meroslarni va geografik joylashuvlarni o'rganish yuzasidan tashkil etiladi.
- *folklor-etnografik turizm*: mehmonxona uylari va xalq hunarmandchiligi, muzeylar, xalq og'zaki ijodi, folklor, mahalliy aholi turmush tarzi, etnografiyasini va x.k.

Maqsadimiz Zomin tumanida turizm sohalarini tashkil etish va rivojlantirish orqali uning boy tabiatni asrab avaylash, tabiiy va arxeologik yodgorliklarini saqlash, aholining udumlari va milliy an'analarini o'rganish barobarida chet ellik turistlarini bu joylarga jalg etib, vatanimizning milliy boyliklarini jahonga tanitish ya'ni turistlarga servis xizmatini tashkil qilish orqali qishloq axolisining bandligini ta'minlash, turmush tarzini yaxshilash, qishloqlar infrastrukturasini yanada rivojlantirishdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Turkiston tog' tizmasining shimoliy qismida turizmni tashkil etish har tomonlama qulay hamda foydalidir. Bunda masalaga bir tomonlama emas, balki ko'p tomonlama yondashish talab etiladi. Tumanida turizmni rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlar ko'p. Oldinda turgan vazifa - yaratilgan sharoit va imtiyozlardan oqilona foydalanish, hududlardagi

dam olish joylarini ko'paytirish, targ'ib etish, yangi loyihalarni hayotga tatbiq etishdan iborat. Bu o'z navbatida, yangi ish o'rinalarini yaratish, obod maskanlar barpo etish imkonini beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг "Туризм тўғрисида"ги Конуни. 2019 йил 18 июль (ЎРҚ-549-сон). // <https://lex.uz/docs/4428097>.
2. Усманов М.Р. "Жиззах вилоятида туристик дестинацияларни ташкил этишининг ҳудудий жиҳатлари" 11.00.02. география.ф.ф.д (Phd) диссертация маълумотлар, - Жиззах.: 2022. 137 б.
3. Хошимов М. Ўзбекистоннинг экологик туризми.-Самарқанд, 2012.
4. Komilova, N. K. (2021). TOURIST DESTINATION AS AN OBJECT OF RESEARCH OF SOCIAL AND ECONOMIC GEOGRAPHY. *Psychology and Education Journal*, 58(1), 2058-2067.
5. Komilova, N. K., Matchanova, A. E., Safarova, N. I., Usmanov, M. R., & Makhmudov, M. M. (2021). Some socio-economic aspects of gastronomic tourism study. *Estudios de economía aplicada*, 39(6), 12.
6. Усманов, М. (2020). Теоретика-методологические вопросы географии экологического туризма. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-4.
7. Usmanov, M. (2020). Ўзбекистонда халқаро туризмни ривожлантиришда "диний туризм" нинг аҳамияти. *Архив Научных Публикаций JSPI*.